



## SO‘Z SEHRGARI VA ADABIYOT FIDOYISI

MIRZAAXMADOVA SEVINCH A‘ZIMJON QIZI

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining

xorijiy til va adabiyoti 2-fakulteti

1-bosqich talabasi mirzaahmadovasevinchO@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqola Aleksandr Faynbergning o‘zbek va rus adabiyotiga qo‘sghan nodir hissasini yoritishga bag‘ishlangan. Unda shoirning hayot yo‘li, ijodiy izlanishlari va uning asarlari orqali jamiyatga ta’sir ko‘rsatgan badiiy va ma’naviy merosi tahlil qilinadi. Faynbergning she’riyatida inson qalbining nozik kechinmalari, tabiat va muhabbatning betakror tasvirlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: shoir, tarjimon, rus she’riyati, adabiyot, unvon, tarjimalar.

Adabiyot -bu inson qalbining dardlari va orzularini so‘zlar orqali dunyoga oshkor etish san‘atidir. U o‘tmish va kelajakni bog‘laydigan ko‘prik, unda insoniyatning abadiy hikoyasi saqlanadi. Adabiyot faqat bilim manbai emas, balki insoniyatni birlashtiruvchi kuch hamdir.U inson tafakkuri va qalbining cheksiz olamini o‘zida aks ettiruvchi sehrli ko‘zgudir. U so‘z orqali jamiyatning kechmishidan kelajagiga yo‘l ochib, insoniyatning eng chuqur his-tuyg‘ularini, orzu-umidlarini va hayot falsafasini ifoda etadi. Adabiyot nafaqat san’at, balki ma’naviyatning nurli manbai bo‘lib, u har bir avlodga o‘zining ichki dunyosini anglash va dunyo bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi.

“Adabiyot-xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish , ularni ezgu maqsadlarda ilhomlantirishda adabiyotning ta‘sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish,buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma



sharoitlarni yaratamiz"-deb ta'kidlaydilar muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Ajdodlar asari-bu bizni o'z ildizlarimizga bog'laydigan zanjir ,unda biz tariximizning asl suratini ko'ramiz. Ana shunday buyuk adiblarimizdan biri, Aleksandr Faynbergdir.

Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabr kuni Toshkentda tug'ilgan. Ota-onasi Novosibirskdan u tug'ilishidan 2 yil avval ko'chib kelgan . Shoир 7 yillik maktabni tamomlagach,Toshkent topografiya texnikumida o'qidi .Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan. 1961-yilda Inna Glebovna Koval bilan turmush qurdi.

O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi a'zosi va 15ta she'riy to'plam muallifi edi. Uning she'rlari "Smena", "Yoshlik", "Yangi dunyo", "Sharq yulduzi", "Yangi Volga" jurnallarda hamda xorijiy mamlakatlarda jumladan, AQSH, Kanada, Isroilning davriy nashrlarida chop etilgan. Faynbergning ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tmish bilan hozirgi kun , G'arb bilan Sharq milliyligi va baynalmilalchiligi o'zaro tutashib , o'ziga xos badiiy olamni vujudga keltiradi. Faynberg ijodining muhim qismini badiiy tarjima tashkil etadi.O'zbek she'riyatini mukammal bilgan shoир Navoiy g'azallari ,Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon va boshqa o'zbek shoirlarining she'r va dostonlarini rus tiliga tarjima qilgan.

Faynberg nafaqat qalam tebratgan shoир sifatida, balki uning ssenariysi asosida "O'zbekfilm"kinostudiyasida "Mening akam", "Jazirama oftob tagida ", "Qandahorda toblanganlar ". "Tojikfilm" kinostudiyasida esa "Jinoyatchi va oqlovchilar" va boshqa filmlari zangori ekran yuzini ko'rib tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan. 1999-yilda "Paxtakor " futbol jamoasining avtohalokatda halok bo'lganining munosabati bilan uning ssenariysi asosida "Osmondagi stadion" nomli filmi suratga olingan.

Aleksandr Faynberg qilgan mehnatlari samarasi tufayli 1999-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, 2008-yilda Pushkin medali hamda 2004-yilda O'zbekiston xalq shoiri unvonlariga sazovor bo'lgan. 2009-yilda

Toshkent shahrida vafot etgan Faynbergning ijodi o‘zbek va rus adabiyotlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Aleksandr Faynbergning asarlari o‘zining lirik va falsafiy ohangi bilan ajralib turadi. Uning ijodi inson ruhiyatining eng nozik qirralarini o‘rganishga, hayotning go‘zalligini qadrlashga va har bir lahzaning ahamiyatini tushunishga undaydi. U o‘z asarlarida inson ruhining erkinligini, ichki kurashlarini va ma’naviy uyg‘unlikka intilishini yoritadi. Faynbergning ijodi har bir insonning ichki olamidagi ziddiyat va uyg‘unlikni aks ettiradi. Uning ijodini o‘rganib shuni angladimki, uning she‘rlari so‘z orqali go‘zallikni abadiyatga muhrlaydi va qalbni ezgulik sari chorlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)
2. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>